ISSN 2181-3187

# MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA MASHGULOTNING TUTGAN O'RNI

***Ahmedova Surayyo***
*Andijon Viloyati Marhamat tumani 23-Davlat*
*Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachi*

**Annotatsiya:** Mashg'ulot - pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilish jarayonidir. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotda bolalarga ta'lim berishning asosiy shakli bo'lgan mashg'ulotning mazmuni va axamiyati xaqida so'z yuritiladi

**Kalit so’z:** Maktabgacha talim, mashg’ulot, Davlat talablari, tarbiyachi, ta’lim tarbiya

**Аннотация:** Обучение – это процесс фронтального сообщения учителем детям необходимых знаний и умений. В данной статье говорится о содержании и значении обучения, которое является основной формой обучения детей в дошкольной образовательной организации.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, обучение, государственные требования, воспитатель, образование.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy qismi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab beribgina qolmay, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 3-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi va vazifasi bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlab berish, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalash hisoblanadi. Tarbiya masalalari talim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari mashgulotlarda talim berish orqali, ijodiy va qoidali oyinlar, bolalarning mustaqil faoliyati, ularning oz mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish, oz gigiyenik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

ISSN 2181-3187




Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari aniq bir yoshdagi bolaning rivojlanish standartlarini va bolaning yutuqlari va rivojlanish darajasini baholash imkoniyatini beruvchi indikatorlarni belgilaydi. Mashgulotda bolalarga yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yolyoriq, korsatiladi, qiynalgan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan boladigan jamoachilik munosabatlarini alohida munosabat bilan qoshib olib boriladi. Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qollaydi.



Mashg'ulot maktabgacha ta'lim tashkilotda bolalarga ta'lim berishning asosiy vazifasidir. Mashg'ulot - pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lim berish ishlari ekskursiya, talimiy o'yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi. Mashg'ulot maktabgacha ta'lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga

ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega


.

Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar.Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq va nutq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Lekin ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egalaydi. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni tashkil etishning asosiy shaklidir. . Mashgulotlarda talim berish didaktika tamoyillari asosida bolalarning yosh va oziga xos xususiyatlarini etiborga olib, malum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin asta murakkablashtirib boriladi. Mashgulotda tarbiyachi oz ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq tasir etishini pedagog bilishi zarur. Bolaga qattiqroq va qatiy gapirish mumkin, ammo bunda soz ohangi bolaga tinchlantiruvchi tasir etishi lozim.Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bolgan jismoniy rivojlanishiga alohida etibor berishi lozim.Bolaning kop vaqt harakatsiz otirishi uning sogligi uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi.

ISSN 2181-3187



Xulosa qilib aytganda, mashgulotda talim berish orqali bolalarda maktabdagi oqishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissin tuyish, ozini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati shakillanadi, topshirilgan ishni bajarish kabi sifatlar hosil qilinadi. Mashgulot paytida bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, hikoya qilinayotgan voqeadagi asosiy goyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta etibor beriladi. Tayyorlov guruhlarida mashgulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent: «Istiqlol», 2006.
2. Ilk qadam davlat o`quv dasturi O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‟lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay‟at yig„ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
3. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б
4. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782
5. М.Усмонова . Ўқувчи шахсига йўналтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон.
6. М.Усмонова .Педагогик жараён лойихаси – машғулотлар самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар Халқаро илмий конферентсия. Тошкент. 25 май, 2017 йил